



**KLINIK LABORATOR
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR**
**xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman**
18 aprel 2023 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

WWW.SSV.UZ

Toshkent tibbiyot akademiyasi www.tma.uz

uchburchagini shakllantirishi mumkin. Sog'liqni saqlash sohasida katta ma'lumotlar o'sishda davom etar ekan, SI va MO texnikasini laboratoriya tibbiyotiga tatbiq etish zarurati muqarrar. SI tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ushbu yangi davrda klinik laboratoriyalar tarjima tibbiyoti, ilg'or texnologiyalar, klinik ma'lumotlarni boshqarish va laboratoriyadan tashqarida yaratilgan natijalar sifatini nazorat qilishda ko'proq ixtisoslashgan rolga o'tadi. Demak, laboratoriya tibbiyoti sohasi bunday rivojlanishni tezroq ko'rib chiqish kerak. Molekulyar biologiyani o'rganish va elektron sog'liqni saqlash yozuvlaridan (ESSY) keng foydalanish natijasida olingan natijalar kompyuterlarning o'sib borayotgan imkoniyatlari bilan birgalikda "katta ma'lumotlar" bizga katta imkoniyatlar, yangiliklar eshiklarini ochadi. Biz insoniyatga Covid-19 epidemiyasini boshdan kechirayotgan shu kunlarda kasallikka qarshi kurashda va vaksinalar yoki dori vositalarini ishlab chiqishda katta ma'lumotlarni qayta ishlash qanchalik muhimligi yana bir bora ma'lum bo'ldi. Covid-19 epidemiyasida ko'rinib turganidek, bunday keng va murakkab ma'lumotlardan mazmunli talqinlarni qayta ishlash va olish turli xil hisoblash vositalari va usullaridan foydalanishni talab qiladi.

DONOR QONINING YAROQSIZLIK SABABLARINI O'RGANISH

Saidov A.B., Madolimov A.M.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Respublika qon quyish markazi

O'zbekistogn Respublikasining "Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida" gi qonunida qon va uning tarkibiy qismlari donorligining asosiy prinsiplari etib quyidagilar belgilangan: qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning ixtiyoriyligi, qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning inson uchun bezararligi, hamda donor qoni va uning tarkibiy qismlarini ishlatish xavfsizligi. Qon komponentlarining xavfsizligi, birinchi navbatda, qon bilan ishlash xizmati tomonidan, donorlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va olingan qonni bir necha laboratoriyalarda, o'rnatilgan tekshiruvlardan o'tkazish orqali, ta'minlanadi. Tahlil natijalari jamlanib, biror ko'rsatkich bo'yicha yaroqsiz deb topilgan qon komponentlari komission tarzda yo'q qilinadi.

Ishning maqsadi qilib, Respublika qon quyish markazida (RQQM) oxirgi 3 yil ichida yaroqsizligi tufayli yo'q qilingan qon komponentlarini tahlil qilishni oldik.

Natijalar. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, donor qoni 10 ta ko'rsatkich bo'yicha yaroqsizligi aniqlanib yo'q qilingan. Bulardan 5 ta ko'rsatkich – "absolyut ko'rsatkich" bo'lib, ular natijasi bo'yicha qon yo'q qilinadi va donor kelgusida qon topshirishga qo'yilmaydi. Bular - qonda OIV, gepatit V va S, zaxm, brutsellezning aniqlanishi. Yana 5 ta ko'rsatkich borki, ular natijasi bo'yicha qon yo'q qilinadi, lekin donor keyingi qon topshirishlarga qo'yiladi. SHu sababli bu ko'rsatkichlarni "nisbiy ko'rsatkichlar" deb atadik. Bular - qondagi ALT va bilirubin miqdori, qon plazmasidagi yog' miqdorining ko'pligi (xilyoz), gemokonteynerdagi yoki probirkadagi qonning gemolizi va laborator tekshiruvdagi bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha "nisbiy yaroqsizlik"dir. Ko'rsatkichlarni bunday guruhlariga ajratishdan maqsad yaroqsizligi bo'yicha yo'q qilinayotgan donor

